

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.1.23.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ALIMXODJAYEVA NARGIZA ELSHODOVNA

**MODALAR BOZORIDA NEYROMARKETINGDAN FOYDALANISH
METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.11 – Marketing

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026 yil

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc) по
экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the
Doctor of Science (DSc) on economics sciences**

Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna

Modalar bozorida neyromarketingdan foydalanish metodologiyasini
takomillashtirish3

Алимходжаева Наргиза Элшодовна

Совершенствование методологии применения нейромаркетинга на
рынке моды29

Alimkhodjayeva Nargiza Elshodovna

Improving the methodology of using neuromarketing in the fashion
market.....
59

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published

works.....65

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc. DSc.03/2025.27.12.1.23.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ALIMXODJAYEVA NARGIZA ELSHODOVNA

**MODALAR BOZORIDA NEYROMARKETINGDAN FOYDALANISH
METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.11 – Marketing

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026 yil

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.DSc/Iqt1061 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim portali (www.ziyonet.uz)ga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Teshabayev To'lqin Zakirovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

G'ulomov Saidaxror Saidaxmedovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik

Ismoilova Gulnora Fayzullaevna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xakimov Ziyodulla Axmadovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent to'qimachilik va engil sanoat instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 03/2025.27.12.1.23.04 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil "___" "___" kuni soat "___" dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel.: (99871) 239-01-49; faks: (99871) 239-41-23; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel.: (99871) 239-28-75; faks: (99871) 239-28-75.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "___" _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil "___" _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

G.K. Abduraxmanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
i.f.d., professor

O.Dj. Djurabayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,
i.f.d., professor

Sh.A. Allayorov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon bozorida modalar bozorining rivojlanishida brending strategiyasi asosiy yo'nalish sifatida ajralib turmoqda. Korxonalar global raqobatda ustunlikka erishish maqsadida aynan brend yaratish va uni ommalashtirishni strategik yondashuv sifatida tanlamoqda. 2024–2030-yillar oralig'ida global kiyim-kechak bozori yillik o'rtacha 2,8% o'sishi kutilar ekan, ushbu hajmning 95 foizi hashamatli emas, balki ommaviy iste'mol toifasiga mansub mahsulotlarga tegishli bo'lishi prognoz qilinmoqda. Tadqiqotlarga ko'ra, 2024-yilda moda sanoatining global qiymati 1,9 trillion AQSh dollariga yetgan bo'lib, xaridorlarning 95 foizi qarorlarni hissiy motivatsiyaga asoslanib qabul qilganini ko'rsatadi. Bu esa modalar bozorida neyromarketingdan foydalanish metodologiyasini takomillashtirish masalasini dolzarbligini belgilaydi.

Jahon moda industriyasida neyromarketing yondashuvlaridan foydalanish brendlar uchun raqobat ustunligini ta'minlashning muhim omiliga aylanmoqda. Yetakchi kiyim-kechak kompaniyalari nafaqat mahsulot dizayni va sifatiga, balki iste'molchilar ongida brendga nisbatan ijobiy emotsional bog'liqlikni shakllantirishga e'tibor qaratmoqda. Neyromarketing texnologiyalari yordamida xaridorlarning hissiy reaksiyalari, e'tibor markazlari va qaror qabul qilish mexanizmlari o'rganilib, ularning xarid xatti-harakatlariga ta'sir etuvchi omillar aniqlanmoqda. Bugungi kunda modalar bozori ishtirokchilari barqaror moda konsepsiyasini ilgari surish bilan bir qatorda ekologik toza brend yaratish (eko-brending), kiyim-kechaklarni qayta ishlash va "second hand" segmentini rivojlantirish orqali ijtimoiy mas'uliyatni oshirishga intilmoqda. Neyromarketing metodlari esa bu jarayonlarda markaziy o'rinni egallab, iste'molchi miyasi faoliyatini kuzatish orqali reklama, rang, tovush va dizaynning psixologik ta'sirini tahlil qilish imkonini beradi. Ayniqsa, kiyim-kechak va moda brendlarining reklama roliklari, veb-sayt interfeyslari va brend identifikatori elementlarida neyropsixologik testlardan foydalanish ularning samaradorligini keskin oshirmoqda. Natijada, moda brendlari mijozlarning ongi va hissiyotlariga chuqur ta'sir etuvchi, uzoq muddatli sodiqlikni shakllantiruvchi kommunikatsion strategiyalarni ishlab chiqiqish taqazo etadi.

O'zbekistonda moda va kiyim-kechak va moda sanoatining raqobatbardoshligini oshirish jarayonida neyromarketing yondashuvlaridan foydalanish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. So'nggi yillarda mamlakatda global bozorlarda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan, barqaror brend strategiyalariga ega mahalliy moda kompaniyalarini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Bu jarayonda nafaqat mahsulot sifati va dizaynini takomillashtirish, balki iste'molchi ongida brendga nisbatan ijobiy hissiy

tasavvurni shakllantirish, mijozning xarid qaroriga ta'sir etuvchi psixologik omillarni chuqur tahlil qilish ham muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida "To'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 barobarga ko'paytirish, tayyor mahsulotlar uchun milliy brendlarni rivojlantirish va ularning eksportini oshirish, jumladan milliy va xorijiy brenddagi tayyor mahsulot eksporti hajmini 2026-yilda 5 mlrd. AQSH dollariga yetkazish"² vazifalari belgilab berilgan. Belgilab berilgan vazifalarni bajarilishi modalar bozorida neyromarketingdan foydalanish metodologiyasini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarning amalga oshirilishini taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2023-yil 02-sentyabrdagi "To'qimachilik sanoatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-155-son, 2023-yil 10-yanvardagi "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-2-son, 2022-yil 21-yanvardagi "To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-53-son Farmonlari, 2019-yil 12-fevraldagi "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 30-sentyabrdagi "To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 556-son 2021-yil 10-dekabrdagi "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 747-son qarorlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy-ilmiy tadqiqotlar sharhi. Modalar bozorida neyromarketingdan foydalanish metodologiyasiga oid tadqiqotlar bugungi kunda dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va

universitetlarida o'z takomilini topib bormoqda. Xususan, ushbu yo'nalishda quyidagi nufuzli oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tashkilotlar haqida to'xtalib o'tishimiz maqsadga muvofiq: Harvard Business School (AQSh), Massachusetts Institute of Technology – MIT (AQSh), Stanford University (AQSh), University of Oxford (Buyuk Britaniya), University of Cambridge (Buyuk Britaniya), Imperial College London (Buyuk Britaniya), INSEAD (Fransiya), Copenhagen Business School (Daniya), Rotterdam School of Management (Niderlandiya), ESSEC Business School (Fransiya), University of Tokyo (Yaponiya), National University of Singapore (Singapur), University of Toronto (Kanada) va Australian National University (Avstraliya). Ushbu markaz va universitetlarda raqamli savdo va marketing integratsiyasi, iste'molchilar xatti-harakatiga asoslangan marketing strategiyalari, sun'iy intellekt vositasida neyromarketing tasiri jarayonlarini urganish buyicha o'tkazilgan tadqiqotlarning samarali natijalari mavjud.

Harvard Business School tomonidan olib borilgan izlanishlar davomida foydalanuvchi tajribasi (UX) va omnichannel marketing strategiyalarining raqamli muhitda brendni shakllantirishdagi o'rni chuqur o'rganilgan. MIT Sloan School of Management tomonidan esa brendlar raqamli savdo platformalarida qanday qilib raqobatbardosh ustunlikka erishayotgani, shuningdek, algoritmik marketing qarorlarining brend sadoqatiga ta'siri tahlil qilingan. AQShda neuromarketing va iste'molchi neyrofani bo'yicha tadqiqotlar faol rivojlanib, bu yerda mijoz miyasining marketing stimullariga javobini o'rganish orqali xarid xulqini prognozlash va hatto unga ta'sir qilishga intilishadi. So'nggi yillarda AQShda Nielsen kabi yirik kompaniyalar neuromarketing texnologiyalariga sezilarli sarmoya kiritib, ushbu yondashuvni amaliy marketing tadqiqotlarida qo'llamoqda. Natijada neuromarketing usullari AQShda reklama, branding va mahsulot dizaynini takomillashtirish maqsadida keng qo'llanilayotgan ilg'or sohaga aylandi.

University of Cambridge tadqiqotlarida modalar bozorida brend ekotizim tushunchalari orqali iste'molchilarga yetkaziladigan brend qadriyatlarini baholash metodologiyalari ishlab chiqilgan. Stanford Universityda esa sun'iy intellektga asoslanib, brend monitoringi, brend sodiqligini tahlil qilish hamda raqamli ommaviy axborot vositalari orqali brend reputatsiyasini boshqarish ustida izlanishlar olib borilgan. Shuningdek, University of Oxford tadqiqotlarida raqamli bozorlar uchun Elektron tijoratda neuromarketing yondashuvlari mijozlarning xarid jarayonidagi ongosti reaksiyalarini o'lchash uchun turli texnologiyalardan foydalanadi. Tadqiqotlarga ko'ra, EEG orqali miya faoliyati signallarini tahlil qilish eng ko'p qo'llaniladigan usul bo'lib, e-tijorat bo'yicha neuromarketing tadqiqotlarining qariyb 41% ida EEG ishlatilgan; shuningdek, ko'z harakatini kuzatish (25%) va fMRI (19%) texnikalari ham keng qo'llanilmoqda. Bundan

tashqari, yurak urish tezligi va teri konduktansi (EDA/GSR) kabi biometrik ko'rsatkichlarni kuzatish, shuningdek, yuz ifodalarini avtomatik tahlil qilish orqali mijozlarning emotsional holatini baholash amaliyoti yo'lga qo'yilgan. Shu bilan bir qatorda, sun'iy intellekt vositalari neuromarketingda tobora integratsiyalashib, ulkan neyrofiziologik ma'lumotlarni qayta ishlash hamda individual xarid tajribasini shaxsiylashtirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Ushbu xorijiy tadqiqotlar modular bozorida muhiti uchun samarali marketing strategiyalarini yaratish, ularni innovatsion texnologiyalar yordamida rivojlantirish hamda brend qiymatini aniqlovchi yangi metodologik yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qilmoqda. Umumjahon e'tiboridagi mazkur ilmiy ishlanmalar O'zbekiston sharoitida ham qo'llanilishi mumkin bo'lgan konseptual manba hisoblanib, mazkur dissertatsiya mavzusining ilmiy asosligini kuchaytiradi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Moda va to'qimachilik, tikuv-trikotaj va moda sanoati korxonalarida brend yaratish jarayoni hamda uni samarali boshqarish masalalari ilmiy-nazariy va ilmiy-uslubiy nuqtayi nazardan jahon ilmiy adabiyotida keng o'rganilgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu borada, xususan, xorijlik marketolog olimlarning ko'plab ilmiy ishlanmalarida moda va brend konsepsiyasining shakllanish omillari, iste'molchilarning xulq-atvori va qaror qabul qilish jarayoniga ta'siri, shuningdek, moda va brendni xalqaro bozorda muvaffaqiyatli joylashtirishning mexanizmlari batafsil tahlil qilingan. Ularning tadqiqotlarida moda va brend boshqaruvi strategik marketingning ajralmas qismi sifatida qaralib, to'qimachilik va moda industriyasida barqaror raqobat ustunligini ta'minlashda brend kapitali, imij va identifikatsiyaning ilmiy-uslubiy asoslari chuqur yoritib berilgan. Bu borada Keller K. L., Kotler P., Mrad M., Park H., Lim R. E., Blasi S., Brigato L., Sedita S. R., Mogaji E., Wei X., Jung S., Yin Z. va boshqalarning ilmiy ishlari diqqatga sazovordir¹. Ushbu uzoq xorijlik olimlarning tadqiqotlarida korxonalarda brend yaratish nazariyasi amaliyoti va uslubiyoti, savdo markasini brend qilishga bo'lgan yondashuvlar, brend kapitalini shakllantirish va uni oshirib borish, mijozlar

¹ Keller K. L., Kotler P. Branding in B2B firms //Handbook of business-to-business marketing. – Edward Elgar Publishing, 2022. – C. 205-224.; Keller K.L. (2003). Strategic Brand Management: Building, Measuring, and Managing Brand Equity. PHI. 2nd ed. New Delhi; Mrad M. et al. Brand addiction in the contexts of luxury and fast-fashion brands //Journal of Retailing and Consumer Services. – 2020. – T. 55. – C. 102089.; Park H., Lim R. E. Fashion and the metaverse: Clarifying the domain and establishing a research agenda //Journal of Retailing and Consumer Services. – 2023. – T. 74. – C. 103413.; Blasi S., Brigato L., Sedita S. R. Eco-friendliness and fashion perceptual attributes of fashion brands: An analysis of consumers' perceptions based on twitter data mining //Journal of Cleaner Production. – 2020. – T. 244. – C. 118701.; Mogaji E. Brand management. – Springer International Publishing, 2021.; Wei X., Jung S. Benefit appeals and perceived corporate hypocrisy: implications for the CSR performance of fast fashion brands //Journal of Product & Brand Management. – 2022. – T. 31. – №. 2. – C. 206-217.; Yin Z. How Fast-Fashion Brands Went Viral—Taking Zara as an Example //2022 2nd International Conference on Enterprise Management and Economic Development (ICEMED 2022). – Atlantis Press, 2022. – C. 538-542.

ongida moda va brend jozibadorligini oshirishning ilmiy-nazariy talqinlari, uslubiy yondashuvlari tadqiq etilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida bu borada Bagiyev G.A., Tarasevich V.M., Antoshkin S.I., Olmezova N.A., Glupko-Fedoricheva S.S., Mirakyan A.G., Xvorostyanaya A.S., Kayumova R.F., Minyazeva A.A., Nevolyani Yu. M., Gordeeva V.V., Bobrova Ya.M., Sarjinskaya M.A. kabi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar². Tadqiqotlarda iste'mol tovarlari moda va brendini shakllantirish va moda va brendni xalqaro bozorlarda samarali ilgari surish, mahalliy kiyim moda va brendlarini global raqobatda ustunliklarini ta'minlash masalalariga e'tibor qaratilgan.

O'zbekistonning iqtisodchi olimlaridan Soliyev A.S., Yo'ldoshev N.Q., Ikramov M.A., Bekmurodov A.Sh., Boltabayev M.R, Fattaxov A.A., Ergashxodjayeva Sh.J., Qosimova M.S., Samadov A.N., Xotamov I.S., Eshmatov S.A, Hakimov Z.A., Zufarova N.G., Yuldashev J.A., Odilova S.S., Oqboev A.R.³ va boshqalar marketing, moda industriyasi va brend yaratish nazariyalarining ilmiy-metodologik asoslarini yaratish borasida tadqiqotlar olib borganlar⁵. Keltirilgan olimlarning tadqiqotlari, asosan, moda va brend yaratish jarayonlari, uni bozorda samarali joylashtirish usullari va vositalarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan bo'lsa-da, tikuv-trikotaj mahsulotlari brendlari qiymatini oshirish, ularni global miqyosda tan olingan xalqaro brendlarga aylantirish, shuningdek, modalar bozori va

² Г.А.Багиев, В.М. Тарасевич. Маркетинг –Спб.: Питер, 2012; С.И. Антошкин Управление брендом инновационной продукции. Специальность 08.00.05 – экономика и управление народным хозяйством (маркетинг, управление инновациями). Дис. на соис. уч. степ. к.э.н., СПб 2017.; Н.А.Ольмезова. Управление позиционированием портфеля брендов. Специальность 08.00.05 – экономика и управление народным хозяйством (маркетинг, управление инновациями). Дис.на соис. уч. степ. к.э.н., доцент – 2017. ст 109.; Глупко- Федоричева С. С., Миракян А. Г. Масштабирование бизнеса: как выбрать подходящую модель развития молодому бренду одежды? //Инновации и инвестиции. – 2022. – №. 5. – С. 64-70.; Хворостяная А. С. Стратегирование суверенитета отечественных брендов лёгкой промышленности и индустрии моды

//Экономическое возрождение России. – 2023. – №. 1 (75). – С. 149-162.; Каюмова Р. Ф., Минязева А. А., Невольни Ю. М. Настоящее и будущее экологических брендов одежды //Тенденции развития науки и образования Учредители: ИП Иванов Владислав Вячеславович. – С. 14-17.; Гордеева В. В. и др. Сравнительный анализ эффективности рекламы брендов одежды в социальной сети "Ютьюб" //А Землянская. – 2023.; Боброва Я. М., Саржинская М. А. Состояние рынка российских брендов одежды //Экономика предприятий, регионов, стран: актуальные вопросы и современные аспекты. – 2023. – С. 70-74.;

³ Soliev A.S.. Marketing. Bozorshunoslik. Darslik. 2010 yil.; N.Q. Yo'ldoshev strategik menejment. Darslik. – T.: TDIU, 2013. 140 b.; M.A.Ikramov, Sh.Dj Ergashxodjaeva, Z.D.Adilova, I.U.Ne'matov Upravlenie brendom. O'quv qo'llanma. –T.; Iqtisodiyot, 2019 yil 305 bet.; Sh.Dj.Ergashxodjaeva, I.Nematov Brendni boshqarish. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2019. – 146 b.; Xotamov I.S. Brending. – T.: TDIU, 2016.; M.A.Ikramov, S.A.Eshmatov, J.G.Jalilov Brending. O'quv qo'llanma.-T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2021 – 280 b., 2018 yil. 149 bet.; S.Eshmatov. Mahalliy brendni shakllantirishning marketing strategiyasi (sut va sut mahsulotlari misolida). 08.00.11-marketing. i.f.f.D. (Phd) dissertasiyasi. TDIU. 2020 yil. Z.A.Xakimov. Engil sanoat korxonlari raqobatbardoshligini marketing strategiyalari asosida oshirish. TDIU, i.f.f.D. (PhD) dissertasiyasi. 2018 yil. 149 bet.; Zufarova N.G. Oliy ta'limda brend kapitali boshqaruvini takomillashtirish. 08.00.11-marketing. i.f.f.D. (Phd) dissertasiyasi. TDIU. 2021 yil.; Odilova S.S. Meva-sharbatlari brendini shakllantirishning marketing strategiyalarini ishlab chiqish. 08.00.11-marketing. i.f.f.D. (Phd) dissertasiyasi. TDIU. 2021 yil.; Oqboev A.R. Tikuv-trikotaj korxonlari raqobatbardoshligini boshqarishda brending strategiyasidan foydalanish. 08.00.11-marketing. i.f.f.D. (Phd) dissertasiyasi. TDIU. 2021 yil.

neyromarketingga oid masalalar yetarlicha tadqiq etilmagan. Xususan, modalar bozorida neyromarketingdan foydalanish borasida ham ilmiy ishlanmalar deyarli uchramaydi. Shu boisdan, modalar bozorida neyromarketingdan foydalanishni chuqur o'rganish va amaliy tadqiqotlar olib borish bugungi kunda dolzarb ilmiy masalalardan biri sifatida qaralmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasaning ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi, modalar bozorida neyromarketingdan foydalanish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

neyromarketing konsepsiyasining nazariy asoslari va uning yuzaga kelish shart-sharoitlarini tadqiq etish;

neyromarketingning genezisi va uning marketing, neyrobiologiya hamda psixologiya fanlari bilan bog'liqligini o'rganish;

modalar bozorida neyromarketingdan foydalanishning metodologik jihatlarini ochib berish;

moda industriyasida neyromarketing strategiyalarining konseptual modellari va ularning integratsiyalashuvini tadqiq etish;

kiyim-kechak modalari bozorida neyromarketingdan foydalanishga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlilini amalga oshirish;

O'zbekistonda modalar bozorining rivojlanish holatini tahlil qilish;

O'zbekiston iqtisodiyotida to'qimachilik sanoatining o'rnini ochib berish;

O'zbekiston va Turkiyada poyabzal modalari bozorining rivojlanishini sotsiologik tadqiq etish;

marketing amaliyotida neyro yondashuvlarning joriy etilishidagi muammolarni aniqlash;

moda industriyasida marketingni baholashning zamonaviy metodologiyasini takomillashtirish;

neyromarketingning metodologik, amaliy va axloqiy muammolariga yechimlar taklif qilish;

korxonaning marketing tadqiqotlari tizimiga neyromarketingni integratsiyalash uslubini takomillashtirish;

O'zbekiston modalar bozorida neyromarketingdan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida mahalliy modalar bozorida neyromarketing faoliyati tanlangan.

Tadqiqotning predmeti modalar bozorida neyromarketingdan foydalanish metodologiyasini takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar majmuyi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida induksiya, deduksiya, statistik tahlil, ekspert baholash, so'rov, korrelyatsion va regression tahlil, PLS-SEM tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra «modalar bozorida neyromarketingdan foydalanish» tushunchasining iqtisodiy mazmuni iste'molchilarning moda mahsulotlarini tanlashi va xarid qilish jarayonida ularning ongsiz hissiy reaksiyalari, kognitiv jarayonlari hamda qaror qabul qilish mexanizmlarini neyrofiziologik va ruhiy usullar orqali o'rganish va shu asosda marketing strategiyalarini shakllantirish jarayoni nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan;

neyromarketingda reklama roliklari, rang uyg'unligi, mahsulot joylashuvi (merchandayzing) va vitrina dizayni vositalarining xaridor e'tiboriga alohida holdagi ta'siri darajalari aniqlanib, mazkur vositalarning muayyan moda bozori sharoitida o'zaro turli kombinatsiyalari orqali ta'sirini kuchaytirishning $p=(0.22,0.24,0.21,0.28)$ vektori maqbul nisbatlari taklif etilgan;

moda sanoati korxonalarini raqamli platformalarda mijoz xatti-harakatlarini kuzatish va ularning e'tibor nuqtalarini aniqlashda etracking ($0,1 \leq E \leq 0,3$), elektroensefalografiya ($0,4 \leq EEG \leq 0,7$) va emotsiya xaritalash ($0,5 \leq EX \leq 0,8$) texnologiyalarini joriy etishning miqdoriy chegarasini ta'minlash asosida reklama materiallarining samaradorligini oshirish hamda mijozlarning brendga nisbatan ishonchi va sodiqligini mustahkamlash taklifi asoslangan;

PLS-SEM modeli asosida sensorli idrok va brendga bo'lgan ishonchning asosiy iste'molchi o'zgaruvchilariga ta'siri eng kuchli bog'liqliklar Brand Trust va Brand Loyalty (0.47) hamda Purchase Intention (0.36) kognitiv ishonch, sensor idrok hissiy va ijtimoiy reaksiyalarga sezilarli ta'siri aniqlangan;

O'zbekistonda modalar bozorida neyromarketingdan foydalanish metodologiyasini takomillashtirish doirasida ko'p omilli ekonometrik modellar asosida to'qimachilik mahsulotlari sotish hajmining 2030 yilgacha prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

modalar bozorida faoliyat yurituvchi kompaniyalar o'z brend identifikatorini (logo, rang, shior, dizayn elementi) neyromarketing sinovlari asosida qayta ko'rib chiqishi orqali iste'molchining diqqatini jalb etish darajasini oshirib, brendni tez taniladigan va esda qolarli qilishiga yordam beradi;

mahalliy kiyim-kechak ishlab chiqaruvchi korxonalar va brendlar xaridorlarining hissiy va xulq-atvor omillarini chuqur tahlil qilish orqali marketing siyosatini yangilashga taklif ishlab chiqildi;

neyromarketing vositalari yordamida reklama roliklari, rang uyg'unligi, mahsulot joylashuvi (merchandising) va vitrina dizaynining xaridor

e'tiboriga ta'siri o'rganildi hamda bu asosda vizual kommunikatsiya strategiyalari takomillashtirildi;

moda sanoati korxonalarini raqamli platformalarda mijoz xatti-harakatlarini kuzatish va ularning e'tibor nuqtalarini aniqlash uchun eyetracking, EEG (elektroensefalografiya) va emosiya xaritalash texnologiyalarini joriy etish asosida reklama materiallarining samaradorligi 25–30 foizga oshgani, mijozlarning brendga nisbatan ishonchi va sodiqligi esa sezilarli darajada mustahkamlangani aniqlandi;

neyromarketing asosida shakllangan strategiyalar O'zbekistonning moda sanoatini innovatsion va yuqori qo'shilgan qiymatli eksport sohasiga aylantirishga xizmat qilib, natijada bir qator mahalliy brendlar (masalan, Bukhara Silk Road Fashion, Atlas Mode, Samarkand Textile Design) xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok etib, xorijiy bozorlar bilan to'g'ridan-to'g'ri hamkorlikni yo'lga qo'yish imkoniga ega bo'ldi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilg'or xorij tajribalarini o'rganish va umumlashtirish, tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarining moda va brendlar jozibadorligini oshirish, mahalliy brendlarni global moda va brendga aylantirish borasidagi mavjud ilmiy tadqiqot ishlarini qiyosiy va tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilish, axborotlar bazasi O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika agentligi, "O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasi, mahalliy va xalqaro kompaniyalarning rasmiy manbalari asosida to'planganligi va ular statistik dasturiy paketlar asosida tahlil qilinganligi hamda qayta ishlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan nazariy va uslubiy tavsifdagi xulosa va takliflardan modalar bozorida neyromarketingdan foydalanish metodologiyasini takomillashtirishning muhim strategik yo'nalishlarini aniqlash va milliy moda brendini globallashtirish maqsadlarini amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilandi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalarni "O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasiga a'zo tikuv-trikotaj korxonalarida mahalliy moda va brendlarni yaratish, ilgari surish va maqsadli auditoriyasini kengaytirishda shuningdek, "Marketing asoslari", "Neyromarketing", "Raqamli marketing" fanlaridan darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Modalar bozorida neyromarketingdan foydalanish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra «modalar bozorida neyromarketingdan foydalanish» tushunchasining iqtisodiy mazmuni iste'molchilarning moda mahsulotlarini tanlashi va xarid qilish jarayonida ularning ongsiz hissiy reaksiyalari, kognitiv jarayonlari hamda qaror qabul qilish mexanizmlarini neyrofiziologik va ruhiy usullar orqali o'rganish va shu asosda marketing

strategiyalarini shakllantirish jarayoni nuqtayi nazaridan takomillashtirish taklifi oliy o'quv yurti talabalari uchun tavsiya etilgan "Marketing" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 18 avgustdagi 356-sonli buyrug'i). Mazkur taklif talabalarda moda mahsulotlari (kiyim-kechak, aksessuar, oyoq-kiyim, kosmetika va boshqalar)ni tanlashi va xarid qilish jarayonida ularning ongsiz hissiy reaksiyalari, kognitiv jarayonlari hamda qaror qabul qilish mexanizmlarini neyrofiziologik va psixologik metodlar orqali o'rganish kabi bilimlarni oshirishda xizmat qilgan;

neyromarketingda reklama roliklari, rang uyg'unligi, mahsulot joylashuvi (merchandayzing) va vitrina dizayni vositalarining xaridor e'tiboriga alohida holdagi ta'siri darajalari aniqlanib, mazkur vositalarning muayyan moda bozori sharoitida o'zaro turli kombinatsiyalari orqali ta'sirini kuchaytirishning $p=(0.22,0.24,0.21,0.28)$ vektori maqbul nisbatlari taklifi "O'zto`qimachilik sanoat" uyushmasi tizimiga joriy etilgan. ("O'zto`qimachilik sanoat" uyushmasining 2025 yildagi 28 noyabr № 02/06-2788- son ma'lumotnomasi) Natijada, Tashkent City Mall, Samarqand Silk Road savdo markazlarida moda chakana savdosini rivojlantirishga imkoniyat yaratildi ;

moda sanoati korxonalarida raqamli platformalarda mijoz xatti-harakatlarini kuzatish va ularning e'tibor nuqtalarini aniqlashda etracking ($0,1 \leq E \leq 0,3$), elektroensefalografiya ($0,4 \leq EEG \leq 0,7$) va emotsiya xaritalash ($0,5 \leq EX \leq 0,8$) texnologiyalarini joriy etishning miqdoriy chegarasini ta'minlash asosida reklama materiallarining samaradorligini oshirish hamda mijozlarning brendga nisbatan ishonchi va sodiqligini mustahkamlash taklifi "O'zto`qimachilik sanoat" uyushmasi tizimiga joriy etilgan ("O'zto`qimachilik sanoat" uyushmasi 2025 yildagi 28 noyabr № 02/06-2788- son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida mahalliy tabiiy matolar asosidagi kolleksiyalar Parij, London va Istanbul ko'rgazmalarida namoyish etildi. Bu O'zbekiston to'qimachilik merosining brendlashuviga olib kelgan;

PLS-SEM modeli asosida sensorli idrok va brendga bo'lgan ishonchning asosiy iste'molchi o'zgaruvchilariga ta'siri eng kuchli bog'liqliklar Brand Trust va Brand Loyalty (0.47 koeffitsent) hamda Purchase Intention (0.36 koeffitsent) kognitiv ishonch, sensor idrok hissiy va ijtimoiy reaksiyalarga sezilarli ta'sirini aniqlash bo'yicha taklif "O'zto`qimachilik sanoat" uyushmasi tizimiga joriy etilgan. ("O'zto`qimachilik sanoat" uyushmasining 2025 yildagi 28 noyabr № 02/06-2788- son ma'lumotnomasi) Natijada, Bibi Hanum, Moel Bosh, Samo, Art Studio Mir, Atlas Art kabi brendlar Fashion Week va boshqa xalqaro tanlovlarda ishtirok etib, O'zbekiston moda industriyasining tanilishiga xizmat qildi;

Ko'p omilli ekonometrik modellar asosida O'zbekistonda to'qimachilik mahsulotlari sotish hajmining 2030 yilgacha prognoz qiymatlari ishlab

chiqilgan. ("O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi 2025 yildagi 28 noyabr № 02/06-2788- son ma'lumotnomasi). Natijada, "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish 2030" strategiyasining mahsulot dizaynini modernizatsiya qilish va mahalliy brendlarni qo'llab-quvvatlash vazifalari shakillantirishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruza qilingan va aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 23 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan Respublika ilmiy jurnallarida 10 ta ilmiy maqola, xorijiy jurnallarda 4 ta ilmiy maqola va 8 ta ma'ruza tezislari chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 5 ta bob, 14 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan bo'lib, uning hajmi 252 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurligi asoslangan; tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan; respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan; ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan; tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Modalar bozorida neyromarketingdan foydalanishning nazariy-uslubiy asoslari**" deb nomlanib, unda neyromarketing konsepsiyasining nazariy asoslari va uning yuzaga kelish shart-sharoitlari o'rganilgan, neyromarketingning genezisi va uning marketing, neyrobiologiya hamda psixologiya fanlari bilan bog'liqligi keltirilgan, marketing amaliyotida neyro yondashuvlarning joriy etilishidagi muammolar nazariy tadqiq etilgan.

Neyron fanlarining zamonaviy taraqqiyoti, birinchi navbatda, ma'lum bir vazifani bajarish bilan bog'liq bo'lgan asab reaksiyalari va jarayonlarini lokalizatsiya qilish va vizualizatsiya qilish imkonini beruvchi funksional magnit-rezonans tomografiyaning (FMRT) paydo bo'lishi va keng tarqalishi bilan bog'liq. Biroq, zamonaviy neyrologiya uchun mavjud bo'lgan usullar va texnologiyalar ro'yxati ancha keng bo'lib, asab jarayonlari to'g'risida ma'lumot to'plashning yangi texnologiyalari va ularni tahlil qilish usullari bilan muntazam ravishda to'ldirilmoqda.

Marketologlar uchun oxirgi nuqta - kelajakdagi xatti-harakatlar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Oxir-oqibat, kompaniya iste'molchilarni shunchaki o'rganishdan emas, balki ularning kelajakdagi xatti-harakatlariga ta'sir qilishdan manfaatdor. Shuning uchun marketing kontekstida tadqiqotning

prognostik qiymati katta ahamiyatga ega.

Bilimning turli sohalarida neyrilmiy usullardan foydalanish kengayib borgani sayin, asosiy resurs imkoniyatlari va tahliliy kompetensiyalar nafaqat akademik yo'nalishda, balki biznes outsorsing sharoitida ham manfaatdor shaxslar uchun yanada qulayroq bo'ladi. Tashqi hamkorlar turli rollarni bajarishlari uskunalar va laboratoriya imkoniyatlarini yetkazib beruvchilar, rag'batlantiruvchi qatorni dasturlash, signallarni to'g'ri ro'yxatdan o'tkazish va qayta ishlash, ma'lumotlarni dastlabki qayta ishlash uchun mas'ul bo'lgan mutaxassislar, eksperimentni tashkil etish va loyihalash bo'yicha maslahatchilar, "to'liq sikl" tadqiqotchilari sifatida ishtirok etishlari mumkin. Bu mutaxassislarning marketologga bog'liq bo'lgan biznes hamkorlarni tanlash tamoyillariga katta e'tibor berishiga sabab bo'ladi. Masalan, S.Genko, E.Polmann va P.Steydilar amaliyotchi marketologlarga mo'ljallangan kitoblarida biznes muhitida neyromarketing hamkorini tanlash bo'yicha quyidagi tavsiyalarni shakllantiradilar (2-jadval).

1-jadval

Biznes muhitida neyromarketing hamkorini tanlash bo'yicha tavsiyalar⁴

		Neyromarketing tushunchalari va tamoyillarini tushunish darajasi	
		Baland	Past
An'anaviy yondashuvlardan qoniqish darajasi	Past	Marketing vazifasiga mos keladigan texnologik imkoniyatlarga ega bo'lgan ixtisoslashgan yetkazib beruvchi bilan hamkorlik	Tashkiliy tayyorgarlikni ta'minlash va neyromarketing vazifasini shakllantirish uchun maslahatchi bilan o'zaro hamkorlik
	Baland	Ixtisoslashgan yetkazib beruvchilar bilan hamkorlik. Bozorda yetakchilikni ta'minlash uchun maslahatchilar ham	Neyromarketing tadqiqotlaridan voz kechish

Hal qilinayotgan tadqiqot muammosiga qarab, aniq usullar yoki texnikalar (masalan, FMRT yoki IT-trekking) yoki integratsiyalashgan yechimlar bo'yicha mutaxassislar bilan hamkorlik talab qilinishi mumkin. Biroq, agar ikkinchisi, birinchi navbatda, amaliyotchi marketologlar tomonidan talab qilinsa, ilmiy tadqiqotlar, birinchi navbatda, bozorda mavjudligi va narxi o'zgarishi mumkin bo'lgan tor mutaxassislarga muhtoj bo'ladi.

Yirik marketing kompaniyalari sezilarli byudjetga ega bo'lishiga qaramay, aksariyat kichik agentliklar va akademik tadqiqotlar uchun byudjet cheklovlari neyromarketing tadqiqotlarini o'tkazish uchun muhim amaliy to'siq bo'lishi mumkin. Bunda qiymat aniq usulga bog'liq bo'ladi.

⁴ Muallif tomonidan tuzilgan

Eng ko'p talab qilinadigan usullardan eng qimmatini fMRT(functional Magnetic Resonance Imaging) hisoblanadi, chunki skaner va litsenziyalangan dasturiy ta'minotning narxi bir necha million dollarni tashkil etadi va unga xizmat ko'rsatishda bir nechta mutaxassislar ishtirok etadi. Bitta tajriba ishtirokchisini tekshirishning o'rtacha narxi 500-1000 AQSH dollari atrofida o'zgarib turadi, bu esa ishtirokchilarning o'rtacha soni va zarur xarajatlar (dizayn va rag'batlarni ishlab chiqish, ma'lumotlarni tahlil qilish va boshqalar) bilan birga, hatto kichik tanlovda aniq tor vazifani o'rganishga qaratilgan kichik loyiha ham kamida 40-50 ming AQSH dollarini tashkil etishini anglatadi.⁵

Amaliy ehtiyojlar va turli usullarning o'ziga xos xususiyatlarini baholashdan kelib chiqib, S.Genko va boshqalar quyidagi qiyosiy jadvalni keltirishadi (2-jadval).

2-jadval

Neyromarketing tadqiqotlarini ba'zi usullarining qiyosiy xususiyatlari⁶

Usul	Murakkablik	Tadqiqot sikli	Bir ishtirokchi uchun xarajatlar
fMRT	Juda baland	Sekin	Juda baland
EEG	Baland	O'rtacha	Baland
Biometriya	O'rtacha	O'rtadan tezkorgacha	O'rtacha
Xulq-atvor iqtisodiyoti	Odatda past	O'rtadan tezkorgacha	O'rtacha
Ay-trekking	Past	Tezkor	Past
Onlayn xizmatlar	Past	Tezkor	Past

Umuman olganda, neyromarketing usullarining amaliy cheklovlarining mohiyati loyiha menejmentining umumiy qoidasi bilan ifodalanishi mumkin: tez, arzon va sifatli bo'lmaydi. Qabul qilish va qaror qabul qilishning batafsil mexanizmlarini aniqlashga imkon beradigan eng sezgir usullar bir vaqtning o'zida eng murakkab va qimmat bo'lib chiqmoqda. Aksincha, arzon va ko'paytiriladigan usullar, odatda, faqat kichik doiradagi vazifalarni hal qilish imkonini beradi yoki iste'molchilar reaksiyalarining yuzaki va qo'pol tavsifi bilan ajralib turadi. Shunday qilib, har qanday neyromarketing tadqiqoti marketologni qiziqtiradigan vazifa va u ega bo'lgan imkoniyatlar o'rtasidagi muvozanatni izlashdir.

Muallifning fikricha, uslubiy yondashuvga ko'ra "modalar bozorida

⁵ Neuromarketing in Food Retailing / Ed. by E.Horska, J.Berčik. Wageningen: Wageningen Academic Publishers, 2017. P.164.

⁶ Muallif tomonidan tuzilgan

neyromarketingdan foydalanish" tushunchasining iqtisodiy mazmuni iste'molchilarning moda mahsulotlari (kiyim-kechak, aksessuar, oyoq-kiyim, kosmetika va boshqalar)ni tanlashi va xarid qilish jarayonida ularning ongsiz hissiy reaksiyalari, kognitiv jarayonlari hamda qaror qabul qilish mexanizmlarini neyrofiziologik va psixologik metodlar orqali o'rganish va shu asosda marketing strategiyalarini ishlab chiqish nuqtai nazaridan takomillashtirilgan.

Dissertasiyaning **"Modalar bozorida neyromarketingdan foydalanishning metodologik jihatlari"** deb nomlangan ikkinchi bobda modalar bozorida neyromarketingdan foydalanishning ilmiy-metodologik asoslari tadqiq etilgan, neyromarketingdan foydalanish uslubiyoti takomillashtirilgan, modalar bozorida neyromarketingdan foydalanishni tashkil etishning jahon tajribasi o'rganilib, mamlakatimizda qo'llash mumkin bo'lgan jihatlari yoritilgan, kiyim-kechak modalari bozorida neyromarketingdan foydalanishga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili amalga oshirilgan.

Erkaklarning modaga bo'lgan munosabati ijtimoiy rollar va kutishlar bilan chambarchas bog'liq. Neyromarketing tadqiqotlarida erkaklar "muvaffaqiyatli mutaxassis" yoki "yetakchi" roli bilan bog'liq rag'batlarga faolroq munosabatda bo'lishlari aniqlangan. Bunday hollarda medial prefrontal korteksning faollashuvi reklama mavqe va yetakchilikka murojaat qilganda kuchayadi.

Qiyosiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, erkaklar kuch, ishonchlik va ustunlikni ta'kidlaydigan brendlarni ko'proq tanlaydilar. Sport kiyimlari yoki ish kostyumlari reklamasida bunday assotsiatsiyalar motor sohalari va premotor korteksni faollashtirishni kuchaytiradi, bu chuqur tana tasavvuri va modellashtirishdan dalolat beradi. Shunday qilib, erkaklarning modani idrok etishini nafaqat kognitiv-ratsional, balki ijtimoiy-rolli sifatida ham ko'rib chiqish mumkin: kiyim ijtimoiy o'ziga xoslikni tasdiqlash vositasi sifatida qabul qilinadi.

Muallifning fikricha, psixologik va madaniy ma'lumotlarni taqqoslash barqaror qonuniyatni ajratish imkonini beradi. Moda iste'molidagi ayollar ko'pincha estetika, his-tuyg'ular va o'ziga xoslikka, erkaklar esa funktsionallik, mavqe va ijtimoiy namoyishga e'tibor qaratadilar. Bu farqlar madaniy kontekst bilan kuchayadi: individualistik jamiyatlarda ayollar o'ziga xoslikni ifodalash uchun, erkaklar esa kuch va yetakchilikni namoyish etish uchun modadan foydalanadilar; jamoaviy madaniyatlarda ayollar uyg'unlikka, erkaklar esa maqom iyerarxiyasiga e'tibor qaratadilar.

EEG (Electroencephalography) tajribalari shuni ko'rsatadiki, erkaklar va ayollar vizual ma'lumotlarni qayta ishlashning turli strategiyalaridan foydalanadilar. Ayollar barcha chastota diapazonlarini tahlil qilishda tasvirlarni tasniflashning eng yuqori aniqligiga (96,47% gacha) erishadilar, bu esa neyronlarning kengroq ishtirokini ko'rsatadi. Erkaklar esa detallarning mahalliy integratsiyasi uchun mas'ul bo'lgan gamma



diapazoniga e'tibor qaratishda eng yuqori aniqlikni (95,32%) ko'rsatadi⁷. Bu shuni ko'rsatadiki, ayollarning moda stimullarini idrok etishi "global qayta ishlash" modeli bo'yicha, erkaklarniki esa "selektiv detallashtirish" modeli bo'yicha quriladi. Ushbu farqlarga qaramay, umumiy natija shuni tasdiqlaydiki, moda vizual stimullari ayol va erkak miyasini yuqori darajada faollashtiradi, bu esa vizual kanalni marketing strategiyalarining universal asosiga aylantiradi.

Yana bir muhim parametr - bu qaror qabul qilish tezligi. Ayollar "yoqtirish/yoqtirmaslik" qarorlarini tezroq qabul qiladilar - o'rtacha 2,5 soniyada, erkaklar esa 2,5 dan 3 soniyagacha vaqt sarflaydilar⁸. Farq keskin emas, ammo u ayollarda ko'proq kognitiv tezkorlik va erkaklarda kognitiv va hissiy signallarning uzoqroq integratsiyasi tendensiyasini tasdiqlaydi.

fMRI tadqiqotlari natijalari shuni ko'rsatadiki, ikkala jins ham gender-kongruent reklama signallari ta'siriga ko'proq javob beradi. Shunday qilib, mahsulot va ovoz mos kelganda (masalan, erkaklar kiyimi reklamasida erkak ovozi) birlamchi ko'rish zonalari - calcarine va cuneus faollashuvi kuchayadi.(3-jadval)

3-jadval

Moda reklamasiga javob berishda genderni asoslangan neyron farqlari uchun dalillar kuchi

Da'vo	Dalil kuchi	Mulohaza	Manba
Moda reklamalarida erkaklar va ayollar turli EEG namunalarini ko'rsatadi	 Kuchli	Aniq genderni asoslangan neyron farqlari bilan bevosita EEG tekshiruvi	Hassani et al., 2023 ⁹
Reklamalardagi gender muvofiqligi neyron faollashuvi va munosabatlarga ta'sir qiladi	 O'rtacha	fMRI tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, miya sohalari kongruent/inkongruent reklamalarga turlicha javob beradi.	Casado Aranda et al., 2018 ¹⁰

Nomuvofiqlik holatlarida esa xatolar monitoringi va kognitiv ziddiyat

⁷ Hassani A., Hekmatmanesh A., Nasrabadi A. M. Gender differences in EEG responses to color and black-white images: Implications for neuromarketing strategies // IEEE Access. 2023. Vol. 11. P. 93739–93752. DOI: 10.1109/ACCESS.2023.3308810.

⁸ Hassani A., Hekmatmanesh A., Nasrabadi A. M. Gender differences in EEG responses to color and black-white images: Implications for neuromarketing strategies // IEEE Access. 2023. Vol. 11. P. 93739–93752. DOI: 10.1109/ACCESS.2023.3308810.

⁹ Hassani A., Hekmatmanesh A., Nasrabadi A. M. Gender differences in EEG responses to color and black-white images: Implications for neuromarketing strategies // IEEE Access. 2023. Vol. 11. P. 93739–93752. DOI: 10.1109/ACCESS.2023.3308810.

¹⁰Casado-Aranda L.-A., Van der Laan L. N., Sánchez-Fernández J. Neural correlates of gender congruence in audiovisual commercials for gender-targeted products: An fMRI study // Human Brain Mapping. 2018. Vol. 39. No. 12. P. 4360–4372. DOI: 10.1002/hbm.24276.

bilan bog'liq sohalarning yanada yaqqol faollashuvi kuzatiladi. Bu shuni tasdiqlaydiki, reklamada gender muvofiqligi universal tarzda ko'proq "tabiiy" va kognitiv jihatdan kamroq xarajatli sifatida qabul qilinadi.

Moda sohasidagi kuzatuv tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ayollar ko'pincha estetik xususiyatlarga - rang, tekstura, print, vitrina elementlariga e'tibor berishadi. Erkaklar esa mahsulotning logotiplari, brend belgilari va funksional xususiyatlariga ko'proq e'tibor berishadi¹¹. Shunga qaramay, ikkala guruhda ham vizual kanalning matnli xabarlardan ustunligi qayd etilgan, bu esa vizual moda kommunikatsiyasining universalligini ta'kidlaydi.

Shunday qilib, uchta asosiy umumiy qonuniyatni ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchidan, erkaklar ham, ayollar ham moda stimullariga yuqori darajadagi neyron javobini namoyish etadilar, faqat ishlov berish kengligi va yo'nalishi bilan farqlanadilar.

Ikkinchidan, ikkala guruhda ham reaksiya tezligi yetarlicha yuqori bo'lib, bu moda obrazlarining tez qayta ishlanadigan stimullar sifatidagi ahamiyatini tasdiqlaydi.

Uchinchidan, hissiy va kognitiv mexanizmlar bir vaqtning o'zida ishtirok etadi, garchi erkaklar ko'pincha tanlovni oqilona, ayollar esa hissiy jihatdan bo'yalgan deb talqin qilishadi.

Moda industriyasida neyromarketing bo'yicha to'plangan nazariy va empirik tadqiqotlarni tahlil qilish ilmiy bazani rivojlantirish uchun ham, marketing kommunikatsiyalari amaliyoti uchun ham muhim bo'lgan bir qator tizimli xulosalarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Erkaklar va ayollar auditoriyalarini taqqoslash shuni ko'rsatadiki, modadagi neyromarketing mexanizmlari umumiy kognitiv va hissiy tamoyillar doirasida ishlaydi, ammo ular aniq gender xususiyatlarini namoyon etadi. Birinchidan, neyrofiziologik darajada moda stimullarini qayta ishlash strategiyalarining farqi tasdiqlanadi. EEG ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, ayollar kengroq neyron ishtiroki bilan ajralib turadi: ular barcha chastota diapazonlarini qo'shganda (96,47%) tanib olishning maksimal aniqligiga erishadilar, bu esa sensor va kognitiv kanallarning kompleks integratsiyasini ko'rsatadi. Erkaklar esa gamma diapazoni bilan ishlashda yaxshiroq natijalarga (95,32%) erishadilar, bu vizual ma'lumotlarni diqqat bilan va tanlab qayta ishlashni aks ettiradi^{12 13}. Bundan xulosa qilish mumkinki, ayollar auditoriyasi modani qabul qilishning "global" strategiyasiga, erkaklar esa mahsulotning alohida xususiyatlariga e'tibor qaratadigan "nuqtali" strategiyasiga moil.

¹¹ De Almeida Andrade, N., Rainatto, G., & Cohen, E. (2022). Neuromarketing and Eye Tracking in Women's Fashion Buying Decision Making. CBR - Consumer Behavior Review. <https://doi.org/10.51359/25267884.2022.251844>

¹² Singh H., Kumar H. Neuromarketing: An Emerging Tool of Market Research // International Journal of Engineering and Management Research. 2015. Vol. 5. No. 6. P. 530-535.

¹³ Zhang S. Nearest neighbor selection for iteratively kNN imputation // Journal of Systems and Software. 2012. Vol. 85. No. 11. P. 2541-2552.

Ikkinchidan, fMRI ma'lumotlari shuni tasdiqlaydiki, moda stimullarini idrok etishda ayollarda hissiy va estetik ishlov berish bilan bog'liq sohalar (orbitofrontal po'stloq, limbik tizim) faolroq ishtirok etadi, erkaklarda esa kognitiv nazorat va ziddiyatlarni kuzatish sohalarini (dorsolateral prefrontal po'stloq, oldingi bel po'stlog'i). Ayniqsa, gender-kongruent va nokongruent signallar holatida farqlar yaqqol namoyon bo'ladi: ayollar ijodiy kelishmovchiliklarga nisbatan yuqori bardoshlilikni namoyish esalar, erkaklar ularni kognitiv dissonans manbai sifatida qayd etishga moil bo'ladilar. Uchinchidan, eye-tracking texnologiyalaridan foydalangan holda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayollar auditoriyasi kiyim va atrof-muhitning hissiy jihatlariga - rang, faktura, vitrina ekspozitsiyalari va dizayn detallariga ko'proq e'tibor beradi. Erkaklar esa ko'pincha funksional va maqom belgilariga - logotiplar, materiallar, brendlarga e'tibor qaratadilar. Shunday qilib, modadagi vizual aloqa o'z tabiatiga ko'ra universaldir, ammo uni idrok etish urg'ulari genderni qarab taqsimlanadi.(4-jadval)

4-jadval

Moda sanoatida erkaklar va ayollarda qiyosiy neyromarketing samaralari

Tadqiqot aspekti	Ayollar	Erkaklar	Manba
Moda rasmlariga EEG javobi	Barcha chastota diapazonlarini tahlil qilishda yuqori tasnifiy aniqlik (96,47% gacha) → keng neyron ishtiroki	Gamma-diapazonda fokuslashda eng yaxshi aniqlik (95,32%) → selektiv mahalliy ishlov berish	Hassani et al., 2023
Qaror qabul qilish tezligi	Tezroq: "yoqdi/yoqmadi" yechimi uchun taxminan 2,5 soniya	Sekinroq: 2,5-3 soniya, kognitiv va hissiy signallar integratsiyasi	Hassani et al., 2023
fMRI (reklamanning jinsga mosligi)	Kongruent signallarda ko'rish sohalarining kuchliroq faollashuvi (calcarine, cuneus)	Nokongruent signallarda xatolar va kognitiv ziddiyatlarni kuzatish zonalarining kuchaytirilgan faollashuvi	Casado-Aranda et al., 2018
Ko'z bilan kuzatish (vizual ustuvorliklar)	Estetikaga e'tibor: rang, tekstura, print, vitrina elementlari	Brend va funksional atributlarga e'tibor qaratish: logotiplar, materiallar, sifat	De Almeida Andrade et al., 2022
Hissiyotga berilish	Yanada aniq va ongli hissiy reaksiya	Ratsionallikning subyektiv tavsifida yashirin hissiy reaksiya	Rodríguez et al., 2024; Touchette & Lee, 2017 ¹⁴


Kognitiv qaror qabul qilish tezligi darajasida ayollar "yoqadi/yoqmaydi" qarorlarini erkaklarga (2,5-3 soniya) qaraganda tezroq (taxminan 2,5 soniya) qabul qilishlari muhim ahamiyatga ega, bu esa kognitiv strategiyalar va hissiy ma'lumotlarni birlashtirishdagi farqlarni ko'rsatadi. Sanoat uchun bu ayollar uchun reklama materiallari dinamik va boy bo'lishi kerakligini anglatadi, erkaklar uchun esa aloqalar yanada tizimli taqdimotni talab qiladi.

To'rtinchidan, subyektiv va obyektiv ma'lumotlarning muvofiqligi haqida. Ayollarda e'lon qilingan hissiy reaksiyalar va obyektiv fiziologik ko'rsatkichlar o'rtasida yaqinroq moslik mavjud¹⁵. Erkaklar esa ko'pincha o'z qarorlarini oqilona deb ta'riflashga moil bo'ladilar, garchi EEG va fMRI ma'lumotlari yashirin hissiy faollikni (masalan, reklamani idrok etishda frontal sohalarning faollashuvini) qayd esa ham. O'z-o'ziga hisobot berish va haqiqiy neyron reaksiyalari o'rtasidagi bu farq an'anaviy so'rovlar har doim ham haqiqiy xulq-atvor drayverlarini aniqlay olmaydigan erkaklar segmentlarida neyromarketing vositalarini qo'llash zarurligini ta'kidlaydi.

Muallfi tomonidan mamlakatimiz kiyim-kechak modalari bozorida neyromarketingdan foydalanishga ta'sir etuvchi latent omillarning ekonometrik tahlilini amalga oshirilgan.

Taqdim etilgan ish SEM modelini qurish va keyingi omilli tahlil asosida ustki kiyim modasi kontekstida yosh ayollar auditoriyasining (xususan, 19-25 yoshli talaba qizlar) idroki, afzalliklari va xulq-atvor namunalariga ta'sir qiluvchi chuqur mexanizmlarni ochib berish imkonini beradi.

Tadqiqot davomida tuzilgan SEM Path diagrammasi Model 2 ta prediktor va 5 ta bog'liq o'zgaruvchini o'z ichiga oladi. Strelkalar taxminiy sababiy bog'lanishlarni ko'rsatadi.



1-rasm. Kiyim-kechak modalari bozorida neyromarketingdan

¹⁴ Rodríguez, C., Florido, C., Cerdá-Suárez, L., & Mocchi, B. (2024). NEUROMARKETING Y MODA: UNA REVISIÓN SISTEMÁTICA SOBRE SUS IMPLICACIONES SENSORIALES. Revista de Ciencias de la Comunicación e Información.

<https://doi.org/10.35742/rcci.2024.29.e304>

¹⁵ Bartra O., et al. The valuation system: A coordinate-based meta-analysis of BOLD fMRI experiments // NeuroImage. 2013. Vol. 76. P. 412–427.

foydalanishga ta'sir etuvchi omillarning PLS-SEM modeli

Yuqoridagi diagrammada sensorli idrok va brendga bo'lgan ishonchning asosiy iste'molchi o'zgaruvchilariga ta'sirini ko'rsatuvchi SEM modeli tasvirlangan. Eng kuchli bog'liqliklar Brand Trust va Brand Loyalty (0.47koeffitsent) hamda Purchase Intention (0.36koeffitsent) o'rtasida kuzatiladi, bu esa kognitiv ishonchning rolini ta'kidlaydi. Sensor idrok hissiy va ijtimoiy reaksiyalarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Model neyromarketingning moda sanoatidagi yosh iste'molchilar xulq-atvoriga kompleks ta'sirini ko'rsatadi.

Ekonometrik tahlil natijalariga ko'ra, moda sanoatidagi neyromarketing shunchaki marketing modasi emas. Bu miya faoliyati, motivatsiya va hissiy reaksiyalarni tushunishga asoslangan chuqur metodologiyadir. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, hatto tanlov o'z-o'zidan bo'lib tuyulganda ham, iste'molchi nafaqat o'rganish, balki maqsadli ravishda faollashtirish mumkin bo'lgan ma'lum ichki algoritmlar bo'yicha harakat qiladi. Tadqiqot doirasida qurilgan SEM modeli ushbu algoritmlarni aniqlash va samarali kommunikatsiya strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Dissertasiyaning uchinchi bobi **“O'zbekistonda modalar bozori va to'qimachilik sanoatining rivojlanish holati”** deb nomlanib, mazkur boda O'zbekiston iqtisodiyotida sanoat va to'qimachilik sanoatining o'zni ochib berilgan, O'zbekistonda to'qimachilik mahsulotlari bozori va rivojlanishi empiric tadqiq etilgan, O'zbekiston va Turkiyada poyabzal modalari bozorining sotsiologik tadqiqoti amalga oshirilgan.

O'zbekiston to'qimachilik sanoati nafaqat ichki bozor uchun, balki tashqi bozorlar uchun ham muhim mahsulotlar yetishtiruvchi sohalardan biri hisoblanadi. Mamlakat paxta xom ashyosini qayta ishlab, yuksak qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlarni eksport qilish strategiyasini amalga oshirmoqda. To'qimachilik tarmog'i aholi bandligini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Hozirgi kunda 3000 dan ortiq to'qimachilik korxonalari faoliyat yuritmoqda va ularning katta qismi xususiy sektorga tegishli.

O'zbekiston sanoatida marketing strategiyalarini qayta ko'rib chiqish, eksport bozorlarini diversifikatsiya qilish va ichki bozorda brendga sodiqlikni oshirish kabi choralarni jadallashtirish lozimligini anglatadi. Keltirilgan jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida kiyim ishlab chiqarish sanoati 2010–2022-yillar oralig'ida barqaror o'sish tendensiyasini namoyon qilgan bo'lib, kiyim ishlab chiqish hajmi 575,8 mlrd. so'mdan 17,2 trln. so'mgacha oshgan. Bu davrda ishlab chiqarish sanoati umumiy hajmining ham, kiyim ishlab chiqarishning hajmining ham muntazam o'sib borishi marketing nuqtayi nazaridan aholining kiyim-kechak iste'mol talabi kengaygani, ichki bozor sig'imi ortgani va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlari kengaygani bilan izohlanadi. Ayniqsa 2016-yildan keyin keskin sakrash kuzatilgani, ya'ni kiyim ishlab chiqarish hajmining birdaniga bir necha barobarga oshgani, davlat tomonidan yengil

sanoatni qo'llab-quvvatlash siyosati, klasterlashuv jarayonlari va brendlash amaliyotining kuchayishi bilan izohlanadi.

5-jadval

2010-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasida kiyim ishlab chiqarish hajmi¹⁶

Klassifikator	2010y.	2015y	2020y.	2021y.	2022y.	2023y	2024y
Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish, mlrd. so'm	38119,0	97598,2	368740,2	456056,1	553265,0	641817,1	651817,1
Ishlab shiqarish sanoati, mlrd. so'm	28742,8	78492,3	305928,6	378186,4	460491,8	526372,4	564372,4
Kiyim ishlab shiqarish mlrd. so'm	575,8	1585,3	10402,4	13592,8	17264,8	19116,9	19816,9
Kiyim ishlab shiqarishning jami sanoatdagi ulushi, %	1,51	1,62	2,82	2,98	3,12	3,34	3,44
Kiyim ishlab shiqarishning ishlab shiqarish sanoatdagi ulushi, %	2,00	2,02	3,40	3,59	3,75	3,81	3,91

2020–2023-yillar oralig'ida O'zbekistonning to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati eksporti barqaror o'sish tendensiyasini namoyon qilib, 18684 mln. dollardan 3,386 mlrd. dollargacha yetgani kuzatilmoqda. Bu jarayon mamlakatning paxta xomashyosini eksport qilishdan ko'ra, yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlarni tashqi bozorga chiqarishga intilayotganini ko'rsatadi. Xususan, kalava ip eksporti hajmi yildan-yilga oshib, 2020-yildagi 224,7 ming tonnadan 2023-yilda 447,8 ming tonnaga yetgan bo'lsa-da, qiymat hajmining pasayib borishi mahsulot narxlar va raqobat sharoitlaridagi o'zgarishlarga bog'liq. Gazlama va trikotaj mato eksporti hajmi ham sezilarli darajada ko'paygan, bu esa xorijiy bozorlarda yarim tayyor mahsulotlarga bo'lgan talabning yuqoriligini ko'rsatadi. Biroq marketing nuqtayi nazaridan eng muhim o'zgarish tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari eksportida kuzatilib, 2020-yildagi 257,4 mln. dollardan 2023-yilda 1,69 mlrd. dollarga yetgani O'zbekiston brendlari va tayyor kiyim-kechak mahsulotlarining xalqaro bozorda o'z o'rnini topayotganini anglatadi.

6-jadval

2021-2025-yillarda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatining eksport ko'rsatkichlari¹⁷

¹⁶ Muallif tomonidan tuzildi

¹⁷ Muallif tomonidan tuzildi

Ko'rsatkishlar nomi	o'lcho v birligi	2021 y.		2022 y.		2023 y.		2024 y.	
		natura	miqdor	natura	miqdor	natura	miqdor	natura	miqdor
Eksport	mln. doll.		1 868,4		2 931,2		3 229,1		3 386,6
Kalava ip	ming tn.	455,4	947,3	562,6	1 618,7	409,5	1 422,3	447,8	1172,2614
Gazlama	mln. kv. m	296,5	103,9	318,5	145,6	305,8	168,1	588,7	171,73247
Trikotaj mato	ming tn.	33,2	139,5	46,1	238,3	50,4	301,4	60,9	290,44892
Tikuv-trikotaj mahsulotlar	mln. doll.		648,0		882,3		1 283,2		1 696,50
Paypoq mahsulotlari	mln. doll.	119,8	29,8	167,3	46,3	168,3	54,1	169,7	55,657158
Boshqa mahsulotlar	mln. doll.								
Mahalliyashtirish	mlrd. so'm		1130		566,8		900,9		1286,6

Shu bilan birga, gazlama va kalava ip kabi yarim tayyor mahsulotlar ulushi yuqori bo'lib qolmoqda, bu esa eksportni chuqurlashtirish va tayyor kiyim-kechak mahsulotlari ulushini yanada kengaytirish zarurligini anglatadi. Mahalliyashtirish ko'rsatkichlari ham 2021-yildagi 22,9 mlrd. so'mdan 2023-yilda 1,28 trln. so'mgacha oshib, ichki ishlab chiqarish zanjirlarining rivojlanib borayotganidan dalolat bermoqda. Umuman olganda, bu davrda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati eksporti hajmi va tarkibida sifat o'zgarishlari yuz berib, O'zbekistonni xalqaro bozor uchun yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchiga aylantirishda marketing tadqiqotlari, moda va brend strategiyalari hamda dizayn innovatsiyalarining ahamiyati tobora ortganligidan dalolat beradi.

2025-yilda O'zbekiston moda yo'nalishi bo'yicha brend va agentliklarning marketing samaradorligi reytingi mamlakatda raqobat kuchayib borayotganini yaqqol ko'rsatmoqda. Reytingda birinchi o'rinni 63 ball bilan "PANDORA" egallab, yakka tartibdagi tashabbus asosida tashkil etilgan korxonada bozorda kuchli brend imijini shakllantirganini namoyish etdi. Bu holat, marketing strategiyalarida brend identifikatsiyasi, mijozlar bilan hissiy bog'lanish va sodiqlik dasturlarining muhim o'rin tutishini tasdiqlaydi. Ikkinchi o'rindagi "BELLSTORE EXPRESS" kosmetika


va gigiyena vositalari chakana savdosiga ixtisoslashgan holda 41 ball bilan yuqori natija ko'rsatib, bozor segmentatsiyasida ayollar auditoriyasiga to'g'ri yo'naltirilgan marketing kampaniyalari samaradorligini ko'rsatmoqda. Uchinchi o'rinda "INDENIM" 35,5 ball bilan joylashib, moda sanoatida kiyim brendi sifatida iste'molchilar orasida keng qamrovli xaridga erishgan. Shu bilan birga, "AYNIMO" va "EXPRESS BEAUTY" 18 ball bilan o'rta pog'onada turib, xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion marketing vositalari, xususan, raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali auditoriya bilan aloqa qilishga tayanmoqda. Pastki o'rinlarda joylashgan brendlar, jumladan "Fratelli Casa", "Oriflame" yoki "Begim Parfumes" marketing samaradorligini oshirish uchun strategik yangilanish, reklama diversifikatsiyasi va brend pozitsiyalashni mustahkamlashga ehtiyoj sezmoqda.

Umuman olganda, reytingdan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda moda brendlari asosan kosmetika, kiyim-kechak va aksessuarlar segmentida faoliyat yuritib, o'z auditoriyalariga to'g'ri yo'naltirilgan marketing yondashuvlarini qo'llamoqda. Biroq yuqori reytingga erishgan brendlar o'zlarining marketing kommunikatsiyalarini kengaytirib, mijozlar bilan doimiy aloqani ta'minlashga katta e'tibor qaratgan. Shunday qilib, moda sanoati bozorida muvaffaqiyat marketing strategiyasini brend qadriyatlarini, innovatsion reklama vositalari va iste'molchilarning ehtiyojlariga moslashtirish orqali qo'lga kiritilmoqda, bu esa kelgusida xalqaro bozorlarda ham raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot uchun tuzilgan so'rovnoma asosan ko'p variantli tanlov imkoniyatiga ega yopiq savollardan iborat bo'lib, ishtirokchilar oddiy tasodifiy tanlov asosida shakllantirildi. Natijada Survio platformasi yordamida jami 23 ta savoldan iborat elektron so'rovnoma ishlab chiqildi.


So'rovnomada jami 300 nafar respondent qatnashdi. Ulardan 58 foizi 18–25 yosh oralig'idagi yoshlar, 11 foizi 25–35 yoshdagilar, 17 foizi esa 35–45 yoshdagi respondentlardan iborat bo'ldi. Bundan tashqari, so'rovda qatnashganlarning 71 foizi aholisi bir milliondan ortiq bo'lgan yirik shaharlarda istiqomat qiluvchi fuqarolardir. Bunday namuna yoshlarning fikrlari va yirik shaharlarda istiqomat qiluvchi aholining ijtimoiy-iqtisodiy qarashlarini aks ettirishi bilan ahamiyatlidir.

So'rovnomaga berilgan dastlabki javoblarning taqsimoti hamda statistik natijalari esa 2-rasmda tasvirlangan bo'lib, ular respondentlarning umumiy qarashlari va ijtimoiy-demografik xususiyatlari haqida muhim ma'lumot beradi.



2-rasm - So'rovda ishtirok etgan respondentlarning yosh toifalari bo'icha taqsimlash diagrammalari

Muloqot savollaridan so'ng respondentlarga temperament turini ko'rsatish taklif qilindi: xolerik, melanxolik, flegmatik yoki sangvinik. Respondentlarning aksariyati o'zlarini sangviniklar deb hisoblashgan - 41,3%, ikkinchi o'rinda xoleriklar - 22,1%, ulardan keyin melanxoliklar - 20,2% va flegmatiklar - 16,3% (3-rasm).




3-rasm - Respondentlarning "Sizning temperamentingiz qanday?" degan savolga bergan javoblarining taqsimlanish diagrammasi

So'ngra so'rovnomada respondentlarning modaga munosabati bilan bog'liq savollar bloki keltirilgan. "Siz modadagi o'zgarishlarni kuzatib borasizmi?" va "Siz uchun moda haqidagi ma'lumotlarning qaysi manbalari asosiy hisoblanadi?" degan savollarga javoblar so'nggi bir necha yillar davomida olib borilgan tadqiqotlarda o'rganildi.

2025-yilda o'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, so'rovda qatnashganlarning aksariyati vaqti-vaqti bilan modaga ergashadi, ammo shu bilan birga, yildan-yilga doimiy ravishda modaga ergashadigan odamlarning ulushi ancha yuqori¹⁸. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki,


¹⁸ Рыкова Е. С., Медведева О. А., Фокина А. А. Анализ этапов развития конструкций обуви в 26

zamonaviy iste'molchi uning kostyumiga bevosita ta'sir qilishi mumkin bo'lgan u yoki bu yangiliklarni qabul qilishga tayyor (4-rasm).



4-rasm - "Siz moda o'zgarishlarini kuzatib borasizmi?" degan savolga javoblar taqsimlanishining retrospektiv gistogrammasi.

Moda haqidagi ma'lumot manbalariga oid savol juda aniq natijani ko'rsatdi - respondentlarning aksariyati moda haqida ma'lumot olishning asosiy kanali Internet bo'lgan va shunday bo'lib qolmoqda. 2020-yilda so'rovda qatnashganlarning qariyb 70 foizi Jahon tarmog'ini afzal ko'rgan. Albatta, olingan natijaga mamlakatimiz va jahondagi pandemiya katta ta'sir ko'rsatdi. 2020-yil kuz-qish va 2021-yil bahor-yoz mavsumining moda namoyishlari onlayn tarzda o'tkazildi, bu esa eng ko'p qiziquvchilarga moda sanoati muhitiga sho'ng'ish imkonini berdi.



5-rasm - 2025-yilda respondentlarning "Siz uchun moda haqidagi ma'lumotlarning qaysi manbalari asosiy hisoblanadi?" degan savolga javoblarining taqsimlanish gistogrammasi.

O'tkazilgan tadqiqotning asosiy vazifasi turli temperament tiplariga ega bo'lgan odamlarda poyabzal tanlashda afzalliklarning bog'liqligini aniqlash edi. Shu munosabat bilan so'rovnomaning navbatdagi savollar bloki respondentlarning kiyim kiyish mavsumiga qarab poyabzal tanlashiga bag'ishlangan.

Temperament turlarining gradatsiyasi shaxsning psixofiziologik nazariyasiga muvofiq umumiy qabul qilingan nomlarni hisobga olgan holda amalga oshirildi. Mavsumga qarab poyabzal turini afzal ko'rish bilan bog'liq masalalarda GOST 23251-83 "Poyabzal. Atamalar va ta'riflar." Normativ-huquqiy hujjatlarning ta'rifi iste'molchiga har doim ham tushunarli bo'lmaganligi sababli, so'rovnomada umumiy foydalaniladigan nomlar bilan misollar keltirildi.

Respondentlarning yoz mavsumidagi afzalliklariga oid javoblarida kuzatilgan tendensiya shuni ko'rsatadiki, temperamentdan qat'i nazar, respondentlarning katta foizi och rangli poyabzalni afzal ko'radi.

Turli temperament tipidagi shaxslarda mavsumiy poyabzalni afzal ko'rish asosida biz tomonimizdan 9-jadval tuzildi.

O'tkazilgan sotsiologik tadqiqot iste'molchilar poyabzalni tanlashda e'tibor qaratadigan asosiy mezonlarni aniqlashga, xaridorning psixotipi va ma'lum bir poyabzal turi va ranglar palitrasini tanlash o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlashga yordam berdi. Ikki davlat - O'zbekiston va Turkiya respondentlarining javoblaridagi olingan natijalardagi farqni bir qator sabablar bilan izohlash mumkin. Birinchi navbatda, aholining mentalitetidagi farq tufayli Turkiyada xaridorga individual yondashuv ancha vaqtdan beri qo'llaniladi, shuning uchun turk xaridori kastomizatsiya funksiyasidan foydalanishga o'tkir ehtiyoj sezmaydi. O'zbekistonlik iste'molchi marketing vositalarining ta'siriga moyil bo'lib, shu sababli, u kastomizatsiya funksiyasini joriy etishni katta ishtiyoq bilan qabul qilmoqda. Alohida ta'kidlash joizki, tadqiqot o'tkazish vaqtida Turkiyaning eng yirik shahri - Istanbul aholisi taxminan 15,7 million kishini (2025-yil ma'lumotlari), taqqoslash uchun, Toshkent aholisi 3,5 milliondan ortiq kishini tashkil etadi, bu ikki mamlakat aholisining turmush darajasi, sifati va sur'atidagi farqni ko'rsatadi.

7-jadval

Turli xil temperamentli odamlarning poyabzalidagi rang tanlash afzalliklari¹⁹

Temperament turi	Poyabzal turi	Rang afzalligi	Vizual ko'rinishi
Qish mavsumi			
Xolerik	Etik	Qora rang; to'q tuslar	● ● ● ●
Xolerik	Botinka	Qora rang; to'q tuslar	● ● ● ●

¹⁹ Muallif tomonidan tuzilgan

Xolerik	Polubotinka	Qora rang; to'q tuslar	● ● ● ●
Melanxolik	Etik	Qora rang; to'q tuslar	● ● ● ●
Melanxolik	Botinka	Qora rang; to'q tuslar	● ● ● ●
Flegmatik	Etik	Qora rang; to'q tuslar	● ● ● ●
Flegmatik	Botinka	Qora rang; to'q tuslar	● ● ● ●
Flegmatik	Polubotinka	Qora rang; to'q tuslar	● ● ● ●
Sangvinik	Etik	Qora rang; to'q tuslar	● ● ● ●
Sangvinik	Botinka	Qora rang; to'q tuslar	● ● ● ●
Sangvinik	Polubotinka	Qora rang; to'q tuslar; Kombinatsiyalangan ranglar	● ● ● ●

Tadqiqot natijalariga ko'ra, poyabzallarni kastomizatsiya qilish mamlakatimizda poyabzal korxonalarini rivojlantirish uchun istiqbolli yo'nalish ekanligini ko'rsatdi, shuning uchun dissertatsiyaning keyingi bobida tovarga individual xususiyatlarni berish funksiyasidan foydalanishning jahon tajribasi bilan bog'liq masalalar batafsil ko'rib chiqilgan.

Tadqiqotda β va γ lar empirik hisoblandi, moda retail (showroom/butik) sifatida asoslandi:

$$ORC_{\text{fashion}}^{\text{base}} = x_1 : x_2 : x_3 : x_4 = 0.22 : 0.24 : 0.21 : 0.28$$

vitrina (0.28) – ko'cha/koridor oqimida "birinchi kontakt"ni ushlaydi;
reklama roligi (0.21) – brend hikoyasi va trend signalini beradi (ayniqsa digital ekran/ijtimoiy tarmoq);

merchandayzing (0.24) – e'tiborni "xaridga yaqinlashtirish" bosqichiga o'tkazadi;

rang uyg'unligi (0.22) – brend kodi va sezgirlikni barqarorlashtiradi, ammo ko'pincha vitrina/dizayn ichida ishlaydi.

8-jadval

Neyromarketingda reklama roliklari, rang uyg'unligi, mahsulot joylashuvi (merchandayzing) va vitrina dizayni vositalarining xaridor e'tiboriga alohida holdagi ta'siri darajalari aniqlanib, mazkur vositalarning muayyan moda bozori sharoitida o'zaro turli kombinatsiyalari orqali ta'sirini kuchaytirishning maqbul nisbatlari

Moda bozori sharoiti	ORC (x_1 reklama : x_2 rang : x_3 merch : x_4 vitrina)	Izoh
Universal	0.25 : 0.20 : 0.25 : 0.30	Vitrina birinchi

(start)		kontakt, merch ichki konversiya
Premium butik	0.20 : 0.25 : 0.20 : 0.35	Estetika + brend kodi (rang) kuchli
Mass-market retail	0.25 : 0.15 : 0.35 : 0.25	Zal ichida topish-olish tezligi muhim
Fast-fashion / trend tez	0.22:0.24:0.21:0.28	Rolik trend signalini tez beradi
Online + offline (omnichannel)	0.35 : 0.20 : 0.20 : 0.25	Digital rolik "traffic driver" bo'ladi

Fast-fashion segmenti moda bozorining eng yuqori dinamikaga ega yo'nalishi bo'lib, unda trendlarning paydo bo'lishi, ommalashuvi va eskirishi juda qisqa vaqt oralig'ida sodir bo'ladi. Shu sababli ushbu segmentda neyromarketing vositalarining xaridor e'tiboriga ta'siri tezkorlik, yangilik signali va vizual moslashuvchanlik omillari bilan belgilanadi. Mazkur sharoitda optimal nisbatlar koeffitsiyenti 0.22 : 0.24 : 0.21 : 0.28 (reklama roligi : rang uyg'unligi : merchandayzing : vitrina dizayni) sifatida shakllanishi mantiqan asoslanadi.

Dissertasiyaning to'rtinchi bobida "Moda sanoatida marketing samaradorligini baholash uslubiyotini takomillashtirish" deb nomlangan to'rtinchi bobida marketing samaradorligini baholash usullarining qiyosiy tahlili amalga oshirilgan, moda industriyasida marketingni baholashning zamonaviy metodologiyasi keltirilgan.

Metodologik jihatdan ushbu tadqiqot quyidagilarni o'z ichiga oladi: strukturaviy modellashtirish (SEM) dan foydalanish yashirin tuzilmalar o'rtasidagi murakkab munosabatlarni sinab ko'rish va ushbu vositaning moda sanoatida marketingni tahlil qilish uchun qo'llanilishini tasdiqlash imkonini berdi. Biroq, cheklovlarni ham hisobga olish kerak: menejerlarning subyektiv baholariga tayanish natijalarning obyektivligini pasaytirishi mumkin va tanlovning geterogenligi umumlashtirishni cheklaydi. Shunga qaramay, ishning xulosalari marketing samaradorligini baholashda asosiy ko'rsatkichlar qatoriga imijni farqlashni kiritish uchun asos bo'ladi. Buni alohida jadval ko'rinishida rasmiylashtirish mumkin (8-jadvalga qarang), unda to'rtta kompetensiya va ularning samaradorlikka ta'siri qiyosiy taqdim etilgan.

9-jadval

Marketing kompetensiyalari va samaradorligi²⁰

Vakolat	Natijaviylikka ta'siri	Ahamiyatlilik
Imidjni farqlash	Ijobiy	Baland
Samarali tanituv	Ijobiy (o'rtacha)	O'rtacha
Bozor bilimlari	Ahamiyatsiz	Past
Xizmat ko'rsatish	Sezilarli ta'sir	Past

²⁰ Muallif tomonidan tuzilgan

Moda sanoatida marketing samaradorligini baholash metodologiyasini rivojlantirishning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri vizual tahlil vositalaridan foydalanishdir. Vizual idrok xarid qilish qarorlarini qabul qilishda, ayniqsa merchandayzing va tovarlarni oflayn va onlayn makonlarda taqdim etish nuqtayi nazaridan muhim rol o'ynaydi. An'anaga ko'ra, vitrinalar va reklama materiallarining samaradorligi ekspert so'rovlari yoki eye-tracking usullari yordamida baholangan. Biroq, ikkala yondashuv ham sezilarli cheklovlarga ega: ekspert baholari ko'pincha subyektivlikdan aziyat chekadi va nigohni kuzatish texnologiyalarini qo'llash uskunalarning yuqori narxini talab qiladi va keng tanlovlar uchun har doim ham kengaytirilmaydi.

Buning fonida kompyuter nigohi va vizual salans tahliliga asoslangan yangi yondashuvlar yanada xolis va tejamkor vositalarni taklif etadi. Usulning mohiyati shundaki, merchandayzing sahnasi tasviri past darajadagi vizual xususiyatlarni - rang, yorqinlik, obyektlarning yo'nalishini ajratib ko'rsatadigan algoritmlar bilan qayta ishlanadi. Keyin bu belgilar piramida modelida birlashtirilib, e'tiborni jamlash zonalarini ko'rsatadigan issiqlik xaritalari (heatmaps) hosil bo'ladi²¹. Bunday yondashuvning afzalligi shundaki, u inson ko'rish qobiliyatining fiziologik xususiyatlarini, jumladan markaziy (*foveal*) va periferik e'tiborni taqlid qila oladi.

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki, moda sanoatida marketing samaradorligini baholash metodologiyasi ko'p qatlamli va ko'p o'lchovli maydon bo'lib, uni yagona universal vositaga keltirib bo'lmaydi. Moda sanoatining tabiati - trendlarning yuqori o'zgaruvchanligi, mahsulotlarning tezlashtirilgan hayotiy sikllari, iste'molchilarning hissiy ishtiroki va madaniy kodlarning roli - turli xil tahliliy yondashuvlardan foydalanishni talab qiladi. Aynan shuning uchun ushbu sohadagi tadqiqotlar aniq ifodalangan fanlararo xususiyatga ega va miqdoriy, sifat va raqamli metodologiyalarning kombinatsiyasiga tayanadi.

Dissertasiyaning beshinchi bobi **“Modalar bozorida neyromarketingdan foydalanish metodologiyasini takomillashtirish”** deb nomlanib, ushbu bobda korxonaning marketing tadqiqotlari tizimiga neyromarketingni integratsiyalash uslubini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan, O'zbekistonda modalar bozori neyromarketingdan foydalanish istiqbollari keltirigan.

Neyromarketing kuzatuv tizimining mustaqil elementi uning samaradorligi va iqtisodiy maqsadga muvofiqligini baholash hisoblanadi. Samaradorlikni baholash kompaniyaning maqsadlari va marketing byudjetiga muvofiq marketing rag'batlarini o'zgartirishni ta'minlaydi. Kompleks neyromarketing kuzatuv tizimi kontekstida kommunikativ

²¹ He, H., Xu, P., Jia, J., Sun, X., & Cao, J. (2024). Visual assessment of fashion merchandising based on scene saliency. *International Journal of Clothing Science and Technology*. <https://doi.org/10.1108/IJCST-03-2022-0037>

samaradorlik asosiy ahamiyatga ega, chunki marketing-miksning barcha elementlari kommunikativ komponentni o'z ichiga oladi. Kommunikatsiya samaradorligini baholash orqali marketing rag'batlarini tuzatish texnologiyasini sxematik ravishda quyidagicha ko'rsatish mumkin (6-rasm).

Strategik marketingda neyrilmiy ma'lumotlar va konsepsiyalardan foydalanishning umumiy imkoniyati shubha tug'dirmasa-da, yuqorida taklif etilgan model brending strategiyasini ishlab chiqishning real varianti bo'lsa-da, shuni ta'kidlash kerakki, bu salohiyat ilmiy tadqiqotlarda ham, amaliy neyromarketingda ham deyarli amalga oshirilmagan. Biz buni amaliy qiyinchiliklar bilan bog'laymiz, ular strategik vazifalar holatida ayniqsa aniq va ahamiyatli bo'ladi. Yaqin kelajakda neyromarketingning eng istiqbolli yo'nalishlari marketingning instrumental darajasi va marketing-miksning alohida elementlari samaradorligini oshirish bilan bog'liq. Ma'lumotlar va xususiy tushuntirish modellarini to'plash alohida marketing rag'batlari samaradorligini baholashdan o'zaro munosabatlar marketingi tamoyillari asosida mijozlar bilan uzoq muddatli o'zaro ta'sirning integratsiyalashgan tizimlarini ishlab chiqishga o'tish imkonini beradi. Neyromarketingdan foydalanishning taktik usulidan strategik usuliga bosqichma-bosqich o'tishni kutish kerak.

Mazkur dissertasiyada mamlakatimizda tikuv-trikotaj mahsulotlar eksporti (mln.AQSH dollari) hajmini 2030 yilgacha prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan. So'nggi yillarda tikuv-trikotaj sanoati O'zbekiston iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biriga aylanib, uning eksport salohiyati barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Biroq global bozorlarda raqobatning kuchayishi, iste'molchilar didining tezkor o'zgarishi hamda moda mahsulotlariga bo'lgan talabning emotsional va psixologik omillar bilan belgilanishi eksportni faqat ishlab chiqarish hajmini oshirish hisobiga kengaytirish imkoniyatlarini cheklab qo'yimoqda.



7-rasm. Neyron ilmiy ma'lumotlarga asoslangan strategik brend marketing modeli²²

Shu nuqtai nazardan, 2030 yilgacha tikuv-trikotaj mahsulotlari eksporti prognozini shakllantirishda nafaqat iqtisodiy omillar, balki iste'molchi xulq-atvorining neyropsixologik jihatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Prognoz natijalari eksport hajmining o'sishi davom etishini ko'rsatgan bo'lsa-da, ushbu o'sishning barqarorligi modalar bozorida zamonaviy marketing yondashuvlarini, xususan, neyromarketing metodlarini joriy etish darajasi bilan chambarchas bog'liq ekanligi aniqlanadi. Chunki xalqaro bozorlarda muvaffaqiyat qozonish uchun mahsulot sifati bilan bir qatorda uning dizayni, vizual jozibadorligi, brend identifikatsiyasi va iste'molchida uyg'otadigan hissiy ta'siri hal qiluvchi

²² Адаптировано из: Venkatraman V. et al. New scanner data for brand marketers: how neuroscience can help better understand differences in brand preferences // Journal of Consumer Psychology. 2012. Vol.22. P.150.

omilga aylanmoqda.

Baholangan model tenglamasi (ARIMA(1,1,1)) quyidagi ko'rinishda ifodalanadi:

$$\Delta Eks_t = \varphi_1 \cdot \Delta Eks_{t-1} + \varepsilon_t + \theta_1 \cdot \varepsilon_{t-1}$$

Baholash natijalariga ko'ra, parametrlar qiymatlari: $\varphi_1 = 0.607$, $\theta_1 = 0.312$. Qoldiq dispersiyasi $\sigma^2 = 11,560,420,561$ (ya'ni, $\sigma \approx 107,519$). Model sifat ko'rsatkichlari: AIC = 196.649, BIC = 196.487, logL = -95.324.

10-jadval

Modalar bozorida neyromarketingdan foydalanish bo'yicha eksport ko'rsatkichi bo'yicha haqiqiy (2017–2025) va ARIMA(1,1,1) prognoz (2025–2027) qiymatlar, 95% ishonch oralig'i bilan


Yil	Prognoz Eks	Past chegara (95%)	Yuqori chegara (95%)
2025	1 702 756	1 492 022	1 913 490
2026	1 676 646	1 220 587	2 132 705
2027	1 660 792	967 571	2 354 013
2028	1 651 165	738 586	2 563 743
2029	1 645 319	532 483	2 758 155
2030	1 641 770	346 299	2 937 240

Olingan vaqt qatori (Eks) 2017–2025 yillarda keskin o'sish tendensiyasini namoyon etadi, bu esa daraja qatorida stasionarlik shartining bajarilmasligini anglatadi. Shu sababli qator birinchi tartibli farqlash ($d=1$) orqali stasionarlashtirildi va Box–Jenkins yondashuvi doirasida ARIMA(1,1,1) modeli baholandi. Baholash natijalariga ko'ra, AR komponenti ($\varphi_1 \approx 0,607$) farqlangan qatorning o'tgan davr impulslari ma'lum darajada saqlanishini, MA komponenti ($\theta_1 \approx 0,312$) esa qisqa muddatli shoklarning inertsiya bilan so'nishini ko'rsatadi.

Model mezonlari (AIC va BIC) kichik namunada ortiqcha murakkabliksiz adekvat moslashuvni ta'minlaydigan spetsifikatsiyani ko'rsatib beradi. Prognoz natijalari 2025–2027 yillarda Eks ko'rsatkichining 1,70 mln atrofida shakllanishi va o'sish sur'atlarining sezilarli darajada pasayishini bildiradi. 95% ishonch oralig'ining kengayishi esa kuzatuvlar sonining cheklanganligi hamda kelgusi davrlarda tasodifiy shoklar ta'siri kuchayishi ehtimolini aks ettiradi. Shu nuqtayi nazardan, prognoz natijalari amaliy qarorlar qabul qilishda ehtiyotkor yondashuvni, shuningdek, qo'shimcha ma'lumotlar (uzoqroq vaqt qatori) va tarkibiy omillar (narxlar, investitsiyalar, ishlab chiqarish quvvati, eksport bozorlari) bilan boyitilgan

ko'p omilli prognoz modellarini parallel qo'llash zarurligini asoslaydi.

Mazkur tadqiqotda modalar bozorida neyromarketingdan foydalanish metodologiyasini takomillashtirish masalalari kompleks va tizimli yondashuv asosida tahlil qilindi. Global raqobatning kuchayishi, iste'molchilarning xulq-atvori va qaror qabul qilish mexanizmlarining murakkablashuvi sharoitida an'anaviy marketing vositalarining imkoniyatlari cheklanib borayotgani aniqlanib, aynan neyromarketing yondashuvlari bozor subyektlari uchun strategik ustunlik manbai sifatida namoyon bo'layotgani ilmiy jihatdan asoslab berildi. Tadqiqot davomida modalar bozori iste'molchilarining hissiy, kognitiv va affektiv reaksiyalarini o'rganishga qaratilgan neyromarketing instrumentlari marketing qarorlarining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi isbotlandi.



8-rasm. Eks ko'rsatkichi bo'yicha haqiqiy (2017–2025) va ARIMA(1,1,1) prognoz (2025–2027) qiymatlar, 95% ishonch oralig'i bilan.

2030 yilgacha tuzilgan prognoz qiymatlari modalar bozorida miqdoriy o'sish bilan bir qatorda sifat jihatidan yangilanish zarurligini ko'rsatadi. Neyromarketing metodologiyasini tizimli ravishda joriy etish eksport salohiyatini barqaror oshirish, milliy brendlarning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini mustahkamlash va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA

Tadqiqot natijasida quydagi xulosalarga kelindi.

1. Marketing bozor iqtisodiyotining obyektiv ehtiyojlari va keskin raqobat muhiti sharoitida iqtisodiy agentlar faoliyatini ta'minlovchi bilim va

amaliyot sohasi sifatida shakllangan. Uning mohiyati iste'molchilar hamda bozor munosabatlarining boshqa ishtirokchilari bilan o'zaro aloqalarda yangi yondashuvlarni izlash, sinovdan o'tkazish va joriy etishga yuqori darajada ochiqlik va moslashuvchanlik bilan tavsiflanadi. Marketing strategiyalari va vositalarini ishlab chiqish uchun prinsipial jihatdan yangi imkoniyatlarning yuzaga kelishi muntazam ravishda marketing, reklama, iste'molchilar psixologiyasi va boshqa amaliy fanlar vakillarining diqqat markazida bo'lib, innovatsion yechimlarni izlash jarayonini rag'batlantiradi hamda ularni amaliyotga tatbiq etish marketing hodisalarini ilmiy-nazariy jihatdan chuqurroq tavsiflash va tushuntirish imkonini kengaytiradi.

2. Neyromarketing ma'lum ma'noda marketing sohasida "buzg'unchi" (disruptiv) innovatsiya sifatida qaralib, ko'plab an'anaviy yondashuv va tadqiqot usullaridan tubdan farq qiluvchi yangi ilmiy-amaliy yo'nalishni ifodalaydi. Neyromarketingning asosiy g'oyasi shundan iboratki, inson miyasining ishlash mexanizmlari haqidagi ishonchli bilimlar marketing rag'batlari bilan iste'molchilarning bozordagi xatti-harakatlarini bog'lab turuvchi klassik bixevioristik modeldagi "qora quti"ni ochish imkonini beradi. Avval marketing asosan iste'molchi xulq-atvorining tashqi namoyonlariga tayanib, rag'batlarning o'zgarishini xatti-harakatlardagi o'zgarishlar bilan bevosita bog'lashga majbur bo'lgan va eng yaxshi holatda ichki jarayonlarni bilvosita usullar orqali qayta tiklagan bo'lsa, neyrokognitiv va neyroaffektiv jarayonlarni o'rganish usullarining rivojlanishi natijasida iste'molchilarning afzalliklari va qarorlari asosida yotgan mexanizmlarni ancha batafsil va asosli tavsiflash imkoniyati yuzaga keldi.

3. Nazariy jihatdan, iste'molchi miyasining faoliyati to'g'risidagi ishonchli bilimlar marketing fanining rivoji uchun keng istiqbollarni ochib beradi. Ular tabiiy fanlar mezonlari va standartlariga yaqinlashgan holda iste'molchi xulq-atvorining yanada chuqur va aniqlashtirilgan nazariy modellarini yaratish, yangi marketing strategiyalarini ishlab chiqish, marketing vositalari samaradorligini sezilarli darajada oshirish hamda marketing faoliyatini tashkil etishga oid yondashuvlarni qayta ko'rib chiqish imkonini berishi mumkin. Shu bilan birga, ushbu gipotetik imkoniyatlar qisqa muddatda to'liq amalga oshiriladi yoki neyromarketing marketing faoliyatining an'anaviy shakllari va mavjud nazariyalarni to'liq almashtiradi, deb hisoblash ilmiy jihatdan asosli emas. Dissertatsiya doirasida amalga oshirilgan tahlillar neyromarketingning ilmiy va amaliy salohiyatini yanada real va muvozanatli baholash zarurligini ko'rsatadi.

4. Neyromarketingning marketing strategiyalari va vositalarini ishlab chiqishda innovatsion yondashuv sifatidagi imkoniyatlarini, shuningdek iste'molchi xulq-atvori haqida ishonchli bilimlar beruvchi ilmiy yo'nalish sifatidagi salohiyatini cheklab turgan bir qator omillarni ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchidan, neyrofanlar usullaridan foydalangan holda iste'molchilar haqidagi sifatli va ishonchli bilimlar hajmining ortishi eksperimental tadqiqotlarning yuqori uslubiy va tashkiliy murakkabligi,

ularning sezilarli moliyaviy xarajatlarni talab qilishi, shuningdek rivojlangan mamlakatlarda inson ishtirokidagi empirik tadqiqotlarni o'tkazishga doir huquqiy va axloqiy cheklovlar bilan sezilarli darajada chegaralanmoqda.

5. Ikkinchidan, neyromarketingning nisbatan yangi ilmiy yo'nalish ekanligi va uning "paradigma shakllanishidan oldingi" holati mutaxassislar o'rtasida yetarli darajada nazariy va metodologik kelishuvning mavjud emasligiga olib kelmoqda. Amaliy jihatdan bu neyromarketing faoliyati uchun yagona va umumqabul qilingan uslubiy instrumentariyning shakllanmaganini anglatadi. Hozirgi vaqtda neyromarketing metodikasi marketingning alohida yo'nalishlari va konkret vazifalariga bag'ishlangan fragmentar tadqiqotlar asosida rivojlanmoqda. Holbuki, neyromarketing vositalarini samarali shakllantirish va ularni marketing amaliyotiga keng joriy etish uchun butun marketing majmuasini qamrab oluvchi yaxlit va tizimli uslubiy yondashuv zarur hisoblanadi.

